

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urinbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Mansurov Ulug'bek Umarovich</i> FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARIDA TIBBIYOT TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (1917-1990-YILLAR)	12-20
<i>Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich</i> O'ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA'LIM BOSQICHIDA DUAL TA'LIM SHAKLINING JORIY QILINISHI TARIXI	21-27
<i>Bobobekova Nargiza Ismatullayeva</i> JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI FAOLIYATI TARIXI (XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARI)	28-33
<i>Esanova Nilufar</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING YENGIL SANOAT SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIGI	34-37
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> QO'QON XONLIGI QO'SHININING QUROL-ASLAHALARIGA OID	38-45
<i>Давлетмуратов Куралбай Хожамуратович</i> АНТИЧНЫЕ И СРЕДНЕВЕКОВЫЕ ЗООМОРФНЫЕ МЕТАЛЛИЧЕСКИЕ ИЗДЕЛИЯ ХОРЕЗМА	46-52
<i>Raximov Bektosh, Tashmuradov Umidbek</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARNING DAVLAT SIYOSIY TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI	53-57
<i>Otaxanov Alisher Mamadaliyevich</i> TEMURIY MALIKALARNING ILM-FAN VA IJTIMOIIY TARAQQIYOTGA QO'SHGAN HISSALAR	58-64
<i>Xakimov Ravshan Raimovich</i> MIRZACHO'LNING ETNOEKOLOGIK MUAMMOLARI	65-74
<i>Ergashev Jahongir Yunus o'g'li</i> TURK XOQONLIGINING BOSHQARUVIDA IMPERIYACHILIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	75-82

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Gabriel Ayodeji Ogunmola</i> ЦИФРОВОЙ ДИВИДЕНД: ИЗУЧЕНИЕ ПОТЕНЦИАЛА ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	83-96
<i>Abdullayev Altinbek Yangibayevich</i> KORXONANING KOMPLEKS ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI VA QO'SHIMCHA MAHSULOT ISHLAB CHIQUARISH HISOBINI YURITISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	97-113
<i>Komolov Odiljon Sayfidinovich</i> KREDIT TASHKILOTLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING TAHLILI	114-123

<i>Shaislamova Nargiza Kabilovna</i> MAMLUKAT IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING ROLI	124-134
<i>Qo'chqarov Baxtiyor Xoshimjanovich</i> KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING AYLANMA MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI	135-147
<i>Abdimurodov Baxrom, Abdimurodov Bahodir</i> AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XODIMLARGA HAQ TO'LANADIGAN HAR YILGI MEHNAT TA'TILINI RASMIYLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	148-152
<i>Matkarimov Inomjon, Yuldashbayev Azizullo</i> BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH	153-158
<i>Исламмутидинова Дина Файзрахмановна</i> ТРАНСФОРМАЦИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КОНЕВОДСТВА В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНИ	159-166
<i>Ravshanov Zaxiriddin Ibragimovich</i> OVQATLANISH XIZMATLARI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	167-176
<i>Джуманиязов Уббинияз Исмайл улы</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ КИТАЯ	177-183
<i>To'lov Ulu'bek Toshmamatovich</i> YERLARNI BAHOLASH VA SOLIQQA TORTISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	184-193
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich,</i> IJTIMOIY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTNING INSON SALOHİYATIGA TA'SIRI	194-200
<i>Tashanov Abduxoliq</i> QADIMGI SHARQ MANBALARIDA INSON BUZG'UNCHILIGI HAQIDAGI QARASHLAR ...	201-206
<i>Muhamedov Asror Asadovich</i> UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA YUSUF XOS HOJIB FALSAFIY MEROSIDAN FOYDALANISH	207-213
<i>Жумаева Шахло Суюновна</i> ВОПРОС НРАВСТВЕННОГО СОВЕРШЕНСТВА В УЧЕНИИ АХМАДА ЯССАВИ	214-219
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> HAJVIYLIKNING PSIXOLOGIK IJTIMOIY-MADANIY VA ESTETIK XUSUSIYATI	220-224
<i>G'ulomov Zuxriddin Baxromjon o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOLG'ON AXABOROTLARNING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI	225-231
<i>Xaitov Lazizbek Azamatovich</i> HAKIM TERMIZIYNING FALSAFIY TA'LIMOTI	232-236

<i>Ortiqov Shahriddin</i> SHAXS ESTETIK ONGI VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA TEATR SAN'ATINING O'RNI	237-241
<i>Toshboboeva Munavar</i> IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI	242-248
<i>Murotov Elyor Narzillo o'g'li</i> YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYALARINING UZVIYLIGI VA FALSAFIY TAHLILI	249-255
<i>Soipova Mavjuda Karimjanovna</i> FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA NUR VA HARAKAT MASALASI	256-260
<i>Ashurova Xurshida Sag'dullaevna</i> HOJI MUIN ZAMONDOSHI SHOKIR MUXTORINING HAYOTI VA FAOLIYATI HAQIDAGI QARASHLARI	261-264
<i>Karimov Anvarjon Lutfilloyevich</i> IBN SINO FALSAFIY MEROSIDA AXLOQI MASALASI	265-269
<i>Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich</i> MA'NAVIY MARGINALLASHUV DAN HIMOYALANISHDA XORIY TAJRIBASI	270-275
<i>Samadov Jonmurod</i> JALOLIDDIN RUMIY GNOSEOLOGIASINING ZAMONAVIY TAHLILI	276-280
<i>Barnoev Sanjar Qurbonovich</i> YUSUF HAMADONIYNING INSON VA KOINOT UYG'UNLIGIGA OID TA'LIMOTIDA ME'YOR MASALALARI	281-286
<i>Ярлакабов Джамшид Мамасултонович</i> СВОБОДА И НЕОБХОДИМОСТЬ КАК ВЕКТОРЫ РАЗВИТИЯ ГЛОБАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА: РЕАЛИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ	287-291
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING SINXRON TAHLILI	292-297
<i>Xayrullayeva Shahzoda Farhod qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SALBIY VA IJOBIY HIS TUYG'ULARNI LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI	298-303
<i>Tadjiyeva Mastura, Umarxonova Dilafruz</i> INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA "BOYLIK" VA "FAQIRLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI	304-308
<i>Sharipova Nilufar Shaxrillo qizi</i> ZAMONAVIY DUNYO ADABIYOTIDA XALQ KULGISI ASOSIDA KELIB CHIQQAN YANGI BADIY SHAKLLAR	309-312
<i>Ochilova Gulnoza Farxod qizi</i> NUTQ BIRLIKLARI MASALASINING UMUMIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI	313-316
<i>Alqarov Nazarbek Alisher o'g'li</i> IT MOTIVINING DUNYO VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI	317-322

<i>Abdusalomov Firuz Abduxoliqovich</i> HARBIY DISKURSDA BUYRUQNING VOQELANISHI	323-329
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmatovna</i> STYLISTIC AND LINGUACULTUROLOGICAL FEATURES OF IMPLICATURES IN ENGLISH AND UZBEK ANECDOTES	330-333
<i>Safarova Farida, Toshkulova Madinabonu</i> THE STUDY OF TEXT LINGUISTIC	334-337
<i>Amonova Dilshoda Azamat qizi</i> ADABIYOTDA BADIY OBRAZ TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI (DEN BRAUNNING "DA VINCHI SIRI" ROMANI MISOLIDA)	338-343
<i>Sultonova Gulchehra Xusanovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILI NAMUNASI SIFATIDA AFORIZMLARNING MADANIY VA FALSAFIY JIHATLARI	344-348
<i>Makhmudova Mutabar Dustmukhammad kizi,</i> CAUSES OF STEREOTYPE OCCURRENCE	349-353
<i>Sadullaeva Matlyuba Akhrorovna,</i> NUMERIC MYSTERIES: THE ROLE OF NUMBERS AND SYMBOLISM IN "THE DA VINCI CODE"	354-359
<i>Khusenova Shosura Toshtemirovna,</i> DOCTORS' ATTITUDES TOWARD LEARNING ENGLISH: A NEEDS ANALYSIS REPORT	360-363
<i>Mamajanova G'uncha, Shakirova Saida</i> EKVIVALENTLIK VA TAFOVUT MEZONLARI ASOSIDA O'ZBEK VA INGLIZ METAFORALARINING QIYOSIY TAHLILI	364-368
<i>Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi</i> SODIQIY AFSHORNING "MAJMA UL-HAVAS" TAZKIRASI VA UNING O'ZBEK TAZKIRASHUNOSLIGIDAGI AHAMIYATI	369-372

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Нурпеисов Еркеш, Ибраева Алуа, Сманова Акмарал</i> КОНСТИТУЦИОННОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРИАДЫ В ИСТОРИЧЕСКОМ ВЫБОРЕ КАЗАХСТАНА	373-379
<i>Камалов Мансурхон Мухтарович</i> К ВОПРОСУ О КОНФЛИКТЕ ИНТЕРЕСОВ В КОРПОРАТИВНЫХ ОТНОШЕНИЯХ	380-385
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> QONUN BUZILISHI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA BUNGA IMKONIYAT YARATIB BERAYOTGAN SHART-SHAROITLARNI BARTARAF ETISH TO'G'RISIDAGI PROKUROR TAQDIMNOMASINING MAZMUNI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR	386-394
<i>Xolov Utkir Shomurodovich,</i> QONUNYI KUCHGA KIRGAN SUD Hujjatlari Yangi Ochilgan Holatlar bo'yicha qayta ko'rishning ayrim masalalari	395-399
<i>Kuldoshev Ulug'bek Otabek o'g'li</i> KASB YUZASIDAN O'Z VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK VA XAVF OSTIDA QOLDIRISH JINOYATLARINING SUBYEKTI VA ULARNING FARQLI JIHATLARI	400-407

<i>Ибрагимова Сабина Эркиновна</i> К ВОПРОСУ О ДАЛЬНЕЙШЕЙ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ПРАВОСУДИЯ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ, В УГОЛОВНО- ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	408-413
<i>Avezov Dilshod Sadulayevich</i> MAHALLIY KENGASH DEPUTATINI CHAQIRIB OLISH MASALALARI VA UNING XUSUSIYATLARI	414-418
<i>Haydarov Jaloliddin Hamza o'g'li</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH YOKI O'TKAZISH JINOYATINING PREDMETI TAHLILI	419-423
<i>Zairov Asadbek Sayfullo o'g'li</i> INKLYUZIV TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA QONUNCHILIK BAZASINING ROLI	424-432
<i>Karimov Bekmurodjon Anvarjonovich</i> BMT INSON HUQUQLARI BO'YICHA SHARTNOMAVIY ORGANLARI TIZIMINI KUCHAYTIRISH	433-442
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA KREATIVLIKNI TASHXISLASH METODIKALARINI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	443-449
<i>Raxmatov Otabek Urinbosarovich</i> "JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI" FANINING BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI	450-455
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO'GARAGI MAHG'ULOTLARIGA TALABALAR QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI	456-461
<i>Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna</i> TALABALARDA INSHONING MAZMUNII- MANTIQUIY BAYON QILINISHIGA DOIR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH	462-467
<i>Ortiqov Bekruh Baxodir o'g'li</i> ZAMONAVIY VOLEYBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI VA BIOMEXANIK XUSUSIYATLARI HAMDA SAMARADORLIKKA TA'SIRI	468-472
<i>Jumayeva Xulkarxon Muxammadjonovna</i> TALABALARNI INVARIANTIV VA VARIATIV TAHDIDLARDAN HIMOYALASHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI	473-480
<i>Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich,</i> TALABALAR KASBIY-AXLOQIY TAYYORGARLIGIGA QADRIYATLARGA ASOSLANGAN YONDASHUV	481-486
<i>O'tashev Xasan Nematullayevich</i> OLIIY TA'LIM MUASSASASIDA SPORT ISHLARINING USTUVOR VAZIFASI SIFATIDA SPORT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHATLARI	487-492
<i>Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o'g'li</i> BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHISINING AXLOQIY YETAKCHILIGI VA KASBIY FAZILATLARI	493-500

<i>Mengliyev Bobur Normamatovich</i> O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI TAHLIL QILISH USULLARI	501-507
<i>Gafforov Alisher Xolmurodovich</i> PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI RAQAMLI TA'LIM RESURLARINI LOYIHALASH, TIZIMLASHTIRISH VA UNING MAZMUNI	508-518
<i>Qurbonova Bonu Quvondiq qizi</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KITOBGA QIZIQTIRISH: SAMARALI USULLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	519-524
<i>Zubaydullayev O'ktam Raim o'g'li</i> O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA SAN'ATNING O'RNI	525-529
<i>Raximov Nurillo Narzullaevish</i> BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR	530-538
<i>Ergashova Munisa Hoshim qizi</i> MUSTAQIL TA'LIMNI O'YINLAR ORQALI TASHKIL ETISH	539-543
<i>Nuriddinova Madina, Nuriddinov Muhriddin</i> USING WIKI-TECHNOLOGY TO IMPROVE STUDENTS' WRITING COMPETENCE	544-552
<i>Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna,</i> O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	553-560
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna,</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI IMKONIYATLARI	561-565
<i>Evatov Saminjon Sobirovich</i> JAMOAVIY FAOLIYATNI TASHKEL ETISH ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH	566-572
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TIZIMLI FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH TAMOIYILLARI	573-577
<i>Idrisov Mironshoh Ilyos o'g'li</i> TALABALARNI JISMONIY TARBIYA, SPORT VA TURIZM VOSITALARI BILAN SOG'LOMLASHTIRISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	578-582
<i>Nasriddinova Nilufar Shuxrat qizi</i> 1-SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING INTENSIVLIGINI TA'MINLASH METODIKASI	583-587
<i>Yavkochdiyeva Dilafruz</i> TALABALARNI PEDAGOGIK KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA "STAATE" INNOVATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	588-593

Received: 16 February 2025

Accepted: 5 March 2025

Published: 20 March 2025

Article / Original Paper

MODERN APPROACHES TO DEVELOPING STUDENTS' LOGICAL THINKING

Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna,

Ajinyoz National Research Institute of Physical Education,
basic doctoral student

Abstract. This article discusses methods for developing logical thinking in 21st-century education and their application in the learning process. Based on Bloom's taxonomy, creative and critical thinking, and Howard Gardner's theory of multiple intelligences, the article analyzes approaches aimed at enhancing students' cognitive and thinking skills.

Keywords: logical thinking, Bloom's taxonomy, creative thinking, critical thinking, multiple intelligences theory, cognitive development.

O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna,

Ajiniyoz nomidagi NDPI, tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada XXI asrda ta'lim sohasida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish metodlari va ularning o'quv jarayonida qo'llanilishi haqida so'z yuritiladi. Bloomning taksonomiyasi, kreativ va tanqidiy fikrlash hamda Howard Gardnerning ko'p intellekt nazariyasi asosida o'quvchilarning bilish va fikrlash qobiliyatlarini oshirishga yo'naltirilgan yondashuvlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: mantiqiy fikrlash, Bloomning taksonomiyasi, kreativ fikrlash, tanqidiy fikrlash, ko'p intellekt nazariyasi, kognitiv rivojlantirish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I3Y2025N83>

Kirish. Zamonaviy ta'lim paradigmasida o'quvchilarning yuqori malakali, har tomonlama rivojlangan, mahoratli, dunyoqarashi keng va chuqur bilim egallashga tayyorlash, ularning kollobarativ muhitda bilim olish darajasini shakllantirish, hamkorlik va munosabat birligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa, o'z navbatida mehnat bozorida raqobatbardosh va innovatsion ta'lim muhitida hamkorlikdagi faoliyatga qodir shaxsni tayyorlash zaruriyatining ahamiyatini oshirmoqda[1]. O'quvchilarda hamkorlik ko'nikmasi, muloqot madaniyatini shaxs ma'naviy o'lchovining alohida sohasi sifatida rivojlantirish tizimini yo'lga qo'yishga bog'liq bo'lgan ilmiy-amaliy tadqiqotlarga tarbiyalanuvchilarning o'z fikrlarini mustaqil tarzda ifodalashga undash alohida e'tibor qaratish zarurati dolzarb ahamiyatli bo'lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. L.S.Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi ham mantiqiy fikrlashning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi[2]. Ushbu nazariya bo'yicha o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari ijtimoiy o'zaro ta'sir va madaniy vositalar (til, belgilar, ramzlar) orqali shakllanadi. Ta'lim jarayonida bu o'qituvchilarning o'quvchilar bilan

muloqotda bo'lishining va ularni mantiqiy fikrlashni talab qiluvchi faoliyat turlariga jalb etishining muhimligini ko'rsatadi.

L.W.Anderson va D.R.Krathwohl o'z tadqiqotlarida, "Interaktiv ta'lim vositalari va dasturiy ta'minotlar o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali vositalar hisoblanadi, chunki ular o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi va o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi" degan xulosaga kelishadi[3].

L.P. Stoylova mantiqiy masalalar yechish orqali o'quvchilarda tahlil qilish, sintez qilish, tushunchalar bilan ishlash, xulosa chiqarish, mulohaza yuritish, mustaqil fikrlash odatlari shakllanishini e'tirof etgan[4].

T.Jumayev "Mantiqiy tafakkurni rivojlantirish boshlang'ich sinf o'quvchilarining kundalik hayotida nega kerak" ligini izohlab bergan. Kichik maktab yoshi davrida mantiqiy fikrlash qanchalik muhimligi va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning faol propedevtik bosqichi ekanligini asoslab bergan[5].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida statistik tadqiqot, adabiyotlar qiyosiy tahlili va farazni asoslash usullaridan foydalanilgan. To'plangan ma'lumotlar asosida kuzatish va iqtisodiy tahlilni qiyoslash, tizimli yondashuv hamda mantiqiy yondashuv kabi uslublardan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Hozirgi ijtimoiy-madaniy hayotda ta'limni insonparvarlashtirish jamiyatimizda yashayotgan insonlarning pedagogik-psixologik fikrlashlariga bog'liqdir. Shaxsning fikrlashi – bu insonga xos tushuncha bo'lib, jamiyatda sodir bo'layotgan yangiliklar va o'zgarishlarga faol kirisha olish munosabati bilan belgilanadi. Inson faqat erkin fikr egasi sifatida qadrlanadi. Bolaning oldindan shakllanmagan dunyoqarashi asta-sekin uning irodasi, tasavvuri, ijodkorlik va yaratuvchanlik kabi nozik mexanizmlari rivojlana borishi asosida tarkib topadi[6].

Mantiqiy fikrlash – bu inson tafakkurining muhim qismi bo'lib, u tanqidiy tahlil, muammolarni aniqlash, ularga yechim topish va ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Hozirgi global axborot jamiyatida, raqamli texnologiyalar va tezkor ma'lumot almashinuvi sharoitida, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish ta'lim tizimining dolzarb vazifasiga aylandi.

XXI asrda ta'lim sohasida mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, ayniqsa, kreativ va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, o'quvchilarni o'z fikrlarini mustaqil tarzda ifodalashga undashga alohida e'tibor qaratilgan. Bu jarayonda quyidagi yondashuvlar va nazariyalar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. **Bloomning taksonomiyasi:** Benjamin Bloom amerikalik ta'lim psixologi bo'lib, u ta'lim sohasida muhim nazariy ishlanmalar yaratgan[7]. Eng mashhur ishlari orasida Bloomning taksonomiyasi ta'lim maqsadlarini tizimlashtirish uchun ishlab chiqilgan modeldir. Bloom taksonomiyasi o'qituvchilarga ta'lim jarayonida bilim darajalarini aniqlash va maqsadlarni puxta belgilashda yordam beradi va o'quvchilarning bilish jarayonlarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratilgan.

Benjamin Bloomning taksonomiyasi o'quv maqsadlarini darajalariga qarab tasniflaydi va bilim olishning chuqurligini oshirishda yordam beradi. Ushbu taksonomiya bilish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, sintez qilish va baholash kabi bosqichlarga bo'lingan. Bloom va uning hamkasblari tomonidan 1956 yilda ishlab chiqilgan bu taksonomiya, bugungi kunda ta'lim va

pedagogik amaliyotda keng qo'llanilmoqda[6]. Bloomning taksonomiya modeli hozirda ko'plab ta'lim dasturlari, test tizimlari va o'qitish strategiyalarini ishlab chiqishda qo'llanilib, o'qituvchilarning ta'lim jarayonini puxtaroq rejalashtirishiga ko'mak beradi.

Bloomning taksonomiyasini boshlang'ich sinf darslarida qo'llash o'quvchilarning mantiqiy fikrlash va bilim olish darajalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga yordam beradi. Quyida har bir darajani boshlang'ich sinf darslarida qanday qo'llash mumkinligi batafsil tushuntirilgan:

1. *Bilim (Knowledge)* - darajasida o'quvchilar asosiy ma'lumotlarni eslab qolish va takrorlashga e'tibor qaratadi. Bu bosqichda bilim olishning asosiy elementi ma'lumotlarni eslab qolishdir. *Misol:* Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarga hafta kunlarini yodlashni topshirishi mumkin yoki matematika darsida qo'shish va ayirish kabi asosiy amallarni o'rgatadi.

O'qituvchi o'quvchilardan yangi o'rganilgan so'zlarni lug'at daftarlariga yozib, ularni kundalik takrorlashni so'rashi mumkin. Shu tarzda, o'quvchilar yangi so'zlarni eslab qolishga harakat qiladi.

2. *Tushunish (Comprehension)* — ushbu darajada o'quvchilar ma'lumotni tushunishga va o'z so'zlari bilan qayta ifodalashga harakat qiladi. Bu bosqichda ular o'zlashtirilgan bilimni chuqurroq anglashga o'tadilar. *Misol:* Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilardan o'z hikoyalarini qisqacha so'zlab berishni yoki muayyan tushunchani tushuntirib berishni so'rashi mumkin.

3. O'qituvchi o'quvchilarga o'zlari o'rgangan hikoyani qisqacha tushuntirishni yoki rasm orqali ifodalashni topshirishi mumkin. Bu usul ularning o'qiganlarini anglashlarini va tushunishlarini oshiradi.

4. *Qo'llash (Application)* — bu bosqichda o'quvchilar o'rganilgan ma'lumotlarni amaliyotda qo'llashga o'tadi. Ular real hayotda yoki oddiy misollarda bilimlarini sinab ko'radi. *Misol:* 1. Matematika darsida o'qituvchi qo'shish va ayirish masalalarini kundalik hayotda qanday ishlatish mumkinligini ko'rsatishi mumkin. O'quvchilarga do'kondan sotib olingan mahsulotlarning umumiy narxini hisoblash topshirig'i beriladi.

O'qituvchi o'quvchilardan sinfda haqiqiy hisob-kitob vazifalarini bajarishlarini so'rashi mumkin, masalan, o'z uylarida qancha kitob borligini sanab chiqish va qo'shish usuli bilan taqqoslash. Bu o'quvchilarga o'rganilgan bilimni hayotda qo'llash imkonini beradi.

5. *Tahlil (Analysis)* - bu bosqichda o'quvchilar mavzuni kichik qismlarga ajratib, ularning qanday ishlashini tushunishga harakat qiladi. Bu bosqich mantiqiy va tahliliy yondashuvlarni rivojlantirishga qaratilgan. *Misol:* O'qituvchi hikoya yoki ertakni o'qib, uning qahramonlarini, sabab-oqibat munosabatlarini o'quvchilarga tahlil qildirishi mumkin. "Nima uchun qahramon bunday yo'l tutdi?" yoki "Bu hodisalar qayerdan kelib chiqdi?" kabi savollar yordamida tahlil qilish topshirig'ini beradi.

O'qituvchi o'quvchilardan hikoya qahramonlari orasidagi munosabatlarni yoki hikoya davomida yuz bergan voqealarni tahlil qilishlarini so'rashi mumkin. Bu usul o'quvchilarga matnni chuqurroq anglash imkonini beradi.

6. *Sintez (Synthesis)* - bosqichida o'quvchilar o'z bilimlarini birlashtiradilar yoki yangi g'oyalarni yaratish uchun o'zlashtirgan bilimlarini ishlatadilar. Ushbu bosqich ijodkorlik va yangilik yaratishga yo'naltirilgan. *Misol:* O'qituvchi o'quvchilarga o'rganilgan hikoya asosida yangi hikoya yaratishni taklif qiladi yoki ular o'rgangan bilim asosida yangi topshiriqlar

tuzishlari mumkin. Tabiat haqidagi ma'lumotlardan foydalanib, o'z o'zgacha hayvonot bog'i loyihasini yaratish topshirig'i beriladi.

O'qituvchi o'quvchilardan o'qigan hikoyalardan yangi bir hikoya yaratishni yoki mavjud hikoyaga o'zgacha yakun yozishni so'rashi mumkin. Bu usul ularning ijodiy fikrlash va sintez qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

6. *Baholash (Evaluation)* – bu bosqichda o'quvchilar o'z bilimlari asosida xulosalar chiqaradi va ma'lumotlarning qiymatini baholashga harakat qiladi. Bu tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Misol: O'quvchilarga ikki xil hikoyani o'qib, qaysi biri ko'proq ma'noli ekanini tushuntirish topshirig'i beriladi. Shuningdek, ular sinfda o'rganilgan bilimning foydasi yoki foydasizligi haqida fikr bildiradilar.

O'qituvchi o'quvchilarga ikki xil hikoya taqdim etadi va ularning qaysi biri yaxshiroq ekanini o'ylab ko'rishni so'raydi. Ular tanlagan hikoya haqida fikr bildiradi va o'z tanlovlarini asoslab beradi. Bu usul o'quvchilarni tanqidiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilishga undaydi.

2. **Kreativ va tanqidiy fikrlash metodlari:** Kreativ va tanqidiy fikrlash metodlari XXI asrda o'quv jarayoniga keng joriy qilindi, chunki ular o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan[6]. Bu metodlar o'quvchilarning bilim olish jarayonida o'zlashtirgan bilimlarini kengaytirib, ularni murakkab masalalarni hal qilishga tayyorlaydi. Quyida kreativ va tanqidiy fikrlashning xususiyatlari, foydalari va ularni o'quv jarayonida qanday qo'llash mumkinligi haqida batafsil tushuntirish berilgan.

Kreativ Fikrlash (Ijodiy Fikrlash).

Kreativ fikrlash yangi g'oyalarni yaratish va mavjud bilimlar asosida innovatsion yechimlar topishga qaratilgan jarayondir. Kreativ fikrlashni rivojlantirish o'quvchilarni muammolarni turli usullar orqali yechishga undaydi va ularning ijodiy qobiliyatlarini kuchaytiradi. Kreativ fikrlash o'quvchilarga mustaqil ravishda yangi yechimlar topish imkonini beradi. Bu yondashuv o'quvchilarning faqatgina bilim olish bilan cheklanib qolmasdan, o'rganilgan ma'lumotni yangicha qo'llashiga imkon yaratadi. Kreativ fikrlash yordamida o'quvchilar yangi g'oyalar ishlab chiqarish, turli xil muqobil yechimlarni sinab ko'rish va o'z ijodiy qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Boshlang'ich sinfda o'qituvchilar kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun o'quvchilarga turli vazifalar berishi mumkin. Masalan: *mavzuga mos rasm chizish yoki hikoya yozish*: O'quvchilar darsda o'rganilgan mavzu asosida rasm chizishi yoki qisqa hikoya yozishi mumkin. Bu ularni mavzuni ijodiy o'rganishga undaydi.

Rol o'ynash mashg'ulotlari: Biror tarixiy voqea yoki ertak sahnasini ijro etish o'quvchilarga mavzuni ijodiy qabul qilish imkonini beradi.

Boshqacha yechim izlash: Matematik masalalarni turli usullar bilan yechishga undash. Masalan, bir masalani yechishda bir nechta yechim usullarini ko'rsatish orqali o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rag'batlantirish.

Tanqidiy fikrlash.

Tanqidiy fikrlash tahliliy yondashuv va mantiqiy mulohaza yuritish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan[3]. Bu metod o'quvchilarni o'rganilgan ma'lumotlarni qayta ishlash, faktlarni tahlil qilish va muqobil nuqtai nazarlardan baholashga undaydi. Tanqidiy fikrlash orqali o'quvchilar yangi ma'lumotlarni chuqurroq tahlil qilish va mantiqan asoslab xulosa chiqarish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Ushbu qobiliyat o'quvchilarni mustaqil va tahliliy

fikrlashga o'rgatadi, bu esa, ular keyinchalik duch keladigan murakkab masalalarni hal qilishda yordam beradi.

Boshlang'ich sinfda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'qituvchilar quyidagi usullardan foydalanishi mumkin:

Savol-javob texnikasi: O'qituvchi o'quvchilarga muayyan mavzu yuzasidan chuqurroq savollar beradi, masalan, "Bu qahramon nega bunday yo'l tutdi?", "Buning sabablarini izohlab bera olasizmi?". Bu o'quvchilarga masalani turli jihatlar bilan tahlil qilish imkonini beradi.

Taqdimot qilish: O'quvchilardan o'z fikrlarini asoslab berish va boshqa o'quvchilarning fikrlarini tanqidiy tahlil qilish so'raladi. Misol uchun, o'quvchilar biror muammo bo'yicha o'z yechimlarini taqdim etishi va boshqa o'quvchilar bilan muhokama qilishi mumkin.

Baholash va qiyoslash: O'quvchilardan ikkita hikoyani yoki ikkita tushunchani taqqoslab, ularning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash so'raladi. Bu usul orqali o'quvchilar mavzuni chuqurroq anglashlari va fikrlarida mustaqillikni rivojlantirishlari mumkin.

Kreativ va tanqidiy fikrlashni integratsiya qilish o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy yondashuvlarini bir vaqtda rivojlantirishga yordam beradi. Misol uchun, biror mavzu yuzasidan ijodiy loyiha tayyorlash va shu loyihani tanqidiy tahlil qilish orqali o'quvchilar o'z fikrlarini har tomonlama anglashga o'rganadilar. Boshlang'ich sinfda o'qituvchi o'quvchilarga ekologik mavzuda plakat yaratish vazifasini beradi (kreativ fikrlash), keyin ularning plakatin tahlil qilishni va muqobil yechimlar taklif qilishni so'raydi (tanqidiy fikrlash).

Kreativ va tanqidiy fikrlash metodlari boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun muhim ahamiyatga ega, chunki ular o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammolarni turli xil yondashuvlar bilan yechish va yangi g'oyalarni tanqidiy baholash qobiliyatlarini rivojlantiradi[6]. Ushbu metodlarni darslarda muntazam qo'llash o'qituvchilarga o'quvchilarning bilim olish jarayonini chuqurroq va qiziqarliroq qilish imkonini beradi. Bu yondashuvlar bolalarga hozirgi zamon talablariga javob beradigan, analitik va ijodiy fikrlash qobiliyatiga ega shaxs bo'lib yetishishda yordam beradi.

- 3. Kognitiv rivojlantirishga oid tadqiqotlar:** Kognitiv rivojlantirishga oid tadqiqotlar o'quvchilarning aqliy va fikrlash qobiliyatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi va ta'lim jarayonini individual imkoniyatlarga moslashtirishga zamin yaratadi. Bu borada Howard Gardnerning "Ko'p Intellekt nazariyasi" juda mashhur bo'lib, u o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini turli yo'nalishlarda rivojlantirish mumkinligini ta'kidlaydi[5].

Howard Gardnerning ko'p intellekt nazariyasi har bir insonning aqliy qobiliyatlari xilma-xil bo'lib, ular alohida intellekt turlari orqali namoyon bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi[8]. Gardner dastlab yetti asosiy intellekt turini ajratib bergan bo'lsa-da, keyinchalik ular sonini to'qqiztagacha yetkazgan. Quyida ularning asosiy turlari keltirilgan:

Lingvistik (Tilga oid) intellekt: So'zlar bilan ishlash, til imkoniyatlarini chuqur anglash qobiliyati. Bu intellekt turi kuchli bo'lgan o'quvchilar adabiyot, til o'rganish va yozuvga qiziqishadi.

Mantiqiy-matematik intellekt: Mantiqiy tahlil qilish, matematik yechimlar topish va mantiqiy ketma-ketlikda fikrlash qobiliyati. Bu intellekt turi kuchli bo'lgan o'quvchilar matematika va ilmiy tadqiqotlarga moyil bo'ladi.

Vizual-makoniyy intellekt: Tasvirlar orqali fikrlash, shakllarni ko'rish va tushunish qobiliyati. Ushbu intellekt turi kuchli bo'lgan o'quvchilar rasm chizish, dizayn va arxitekturaga qiziqishadi.

Musiqiy (Musical) intellekt: Musiqani tushunish va ijro etish qobiliyati. Musiqiy intellekti kuchli bo'lgan o'quvchilar qo'shiqlar eshitish, musiqa asboblari o'rganish va ritmni anglashga qobiliyatli bo'ladilar.

Jismoniy-kinestetik intellekt: Jismoniy harakatlarni, tana muvozanatini boshqarish qobiliyati. Bu intellekt turi sport, raqs va jismoniy mashqlar orqali namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy (Interpersonallar) intellekt: Odamlar bilan muloqot qilish va ularning his-tuyg'ularini tushunish qobiliyati. Bu turdagi intellekti kuchli bo'lgan o'quvchilar boshqalar bilan ishlashda muvaffaqiyatli bo'ladilar.

O'zini anglash (Intrapersonallar) intellekt: O'z his-tuyg'ularini anglash, o'z fikr va xatti-harakatlarini boshqarish qobiliyati. Bu intellekti kuchli bo'lgan o'quvchilar o'z-o'zini tahlil qilish va o'zlarini boshqarishda muvaffaqiyat qozonadilar.

Tabiat bilan bog'liq intellekt: Tabiatni va undagi jonli va jonsiz narsalarni tushunish, ularga e'tibor berish qobiliyati. Bu intellekti kuchli o'quvchilar ekologiya, tabiatshunoslik va biologiyaga qiziqishadi.

Mavjudlik (Existensial) intellekt: Olam, hayot va mavjudlikning chuqur masalalariga qiziqish. Bu intellekti kuchli bo'lgan o'quvchilar falsafiy savollar bilan shug'ullanishga moyil bo'lishadi.

Kognitiv rivojlantirish tadqiqotlarining ta'limda ahamiyati:

Kognitiv rivojlantirishga oid tadqiqotlar har bir o'quvchining qobiliyatlari va qiziqishlari xilma-xilligini hisobga olish orqali darslarni individuallashtirish imkoniyatini beradi[9]. Gardner[8]ning nazariyasi asosida o'qituvchilar o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlab, ularning kuchli tomonlarini rivojlantirishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun amaliy qo'llanishi:

Turli faoliyatlar orqali darslarni boyitish: O'qituvchilar darslarda turli intellekt turlariga mos keladigan faoliyatlarni qo'llashi mumkin. Masalan, lingvistik intellekti kuchli o'quvchilar uchun hikoya yozish, mantiqiy-matematik intellekti kuchli o'quvchilar uchun masalalar yechish, va musiqiy intellekti kuchli o'quvchilar uchun musiqa orqali o'rganish imkoniyatlari yaratish mumkin.

Qiziqishga mos topshiriqlar berish: Har bir o'quvchi intellekt turi bo'yicha turlicha qiziqish va kuchli tomonlarga ega bo'lgani uchun o'qituvchi moslashuvchan topshiriqlar tayyorlashi mumkin. Masalan, tabiat bilan bog'liq intellekti kuchli o'quvchilar uchun tabiat hodisalariga oid loyihalar, intrapersonallar intellekti kuchli o'quvchilar uchun esa, o'z his-tuyg'ularini aks ettiradigan insholar yozish topshiriqlari berilishi mumkin.

Guruhli va individual ishlash imkoniyatlari: Interpersonallar intellekti kuchli o'quvchilar guruhlarda ishlashni afzal ko'rishadi, shuning uchun o'qituvchi ular uchun muhokama va jamoaviy loyiha ishlari tashkil qilishi mumkin. Intrapersonallar intellekti kuchli o'quvchilar esa, individual ravishda topshiriqlar bajarish orqali o'zlarini rivojlantirishi mumkin.

Ijodiy loyihalar va tanlovlar tashkil qilish: Vizual-makoniyy yoki jismoniy-kinestetik intellektlari kuchli o'quvchilar uchun ijodiy loyihalar va tanlovlar tashkil qilish mumkin. Masalan, badiiy loyihalar tayyorlash, rasm chizish yoki kichik teatr sahnalarini ijro etish.

Shaxsiy rivojlanish rejalari yaratish: O'qituvchilar Gardner nazariyasiga asoslanib har bir o'quvchi uchun individual rivojlanish rejalari yaratishlari mumkin. Bu rejalarda o'quvchining kuchli intellekt turi va qiziqishlariga asoslanib, ularga mos keladigan dars va faoliyatlar tashkil etiladi.

Gardnerning ko'p intellekt nazariyasi va kognitiv rivojlantirish tadqiqotlari ta'limni har bir o'quvchining individual imkoniyatlariga moslashtirish imkonini beradi[8]. Bu o'quvchilarning o'ziga xos qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi va o'qituvchilar uchun har bir o'quvchining kuchli tomonlarini hisobga olgan holda darslarni samarali tashkil qilishda muhim vosita bo'ladi. Shu tariqa, kognitiv rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar o'qituvchilarga dars rejalari tuzishda keng imkoniyatlar yaratadi va o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Zamonaviy yondashuvlar asosida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda qo'llanilayotgan metodlar muvaffaqiyatli natijalarga erishmoqda. Amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, muammoli ta'lim va loyiha asosidagi ta'lim usullari o'quvchilarning mustaqil fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi. Kelgusida ushbu metodlarni yanada takomillashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va xalqaro tajribalarni moslashtirish orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini yanada oshirish mumkin bo'ladi. Shu maqsadda, pedagogik va psixologik tadqiqotlarni davom ettirish, eksperimentlar va sinov darslarini tashkil etish, shuningdek, o'qituvchilarni zamonaviy usullar bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. O'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar ta'lim tizimining innovatsion rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Muammoli ta'lim, loyiha asosidagi metodika, interfaol o'yin texnologiyalari, STEM ta'limi va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yo'naltirilgan usullar o'quvchilarning mustaqil, analitik va tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuvlarni keng joriy etish, innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish va xalqaro tajribani o'zlashtirish orqali ta'lim jarayonining sifatini yanada oshirish mumkin. Shunday qilib, o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish nafaqat ularning shaxsiy va intellektual salohiyatini kuchaytiradi, balki kelajakda ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga ham sezilarli hissa qo'shadi.

Bloomning taksonomiyasi bilim darajalarini aniqlash va dars jarayonini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini bersa, kreativ va tanqidiy fikrlash metodlari o'quvchilarni ijodiy va mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Gardnerning ko'p intellekt nazariyasi esa, o'quvchilarni o'ziga xos qobiliyatlar asosida o'qitishning ahamiyatini ta'kidlaydi. Bu yondashuvlar o'qituvchilarga o'quvchilarning turli intellektual va ijodiy ehtiyojlarini qondiruvchi, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega shaxslar yetishtirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Facione, P. A. "Critical Thinking: What It Is and Why It Counts". Millbrae: Insight Assessment. 2011
2. Выготский Л.С. Мышление и речь / Л.С. Выготский. — М: АСТ, 2005.
3. Anderson, L. W., & Krathwohl, D. R. "A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives". New York: Longman. 2001
4. Стойлова Л.П. Теоретические основы начального курса математики. Учебное пособие. Москва. "Академия". 2022. 272 с.

5. Jumayev M.E. Boshlang'ich matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Pedagogik yo'nalishdagi kasbhunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma. "Ilm-Ziyo" nashr. Toshkent-200
6. Toshpulatova Sh.O. O'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish // Monografiya. –T.: Ta'lim taraqqiyoti. 2017. – B.65.
7. Bloom, B. S. "Taxonomy of Educational Objectives, Handbook 1: The Cognitive Domain". New York: David McKay Company. 1956
8. Gardner, H. "Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences". New York: Basic Books. 1983
9. Brookfield, S. D. "Teaching for Critical Thinking: Tools and Techniques to Help Students Question Their Assumptions". San Francisco: Jossey-Bass. 2012
10. Paul, R., & Elder, L. "Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Professional and Personal Life". Upper Saddle River: Pearson Education. 2014
11. Sternberg, R. J., & Grigorenko, E. L. "Teaching for Successful Intelligence: To Increase Student Learning and Achievement". Arlington Heights: Skylight. 2001.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).